

O'ZBEKISTON ARXEOLOGIYA FANI RIVOJLANISH TARIXI (XX-XXI ASR BOSHI).

Amonova Gulbadanbegim Amin qizi.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti.

Tarix fakulteti bakalavr arxeologiya yo'naliishi 2-kurs talabasi

gulbadanbegimamonva@gmail.com

Annotatsiya; Ushbu maqolada O'zbekistonda arxeologiyaning rivojlanishi, o'zbekiston hududida olib borilgan tadqiqotlar va tarixiy yodgarliklarni oshish va ularni tarixiy madaniy meroslarga qo'shish, o'zbekiston tarixini yanada oshish ishlari olib borilgan tadqiqotlar haqida

Kalit so'zlar: Arxeologiya, A.Yu.Yakubovskiy, Termiz, O'rta Osiyo, Ekspeditsiya, S.Tolstov, Ya. G'ulomov, O'zR FA.

The history of the development of archeology in Uzbekistan (XX-early XXI century).

Amonova is the daughter of Gulbadanbegim Amin. Karakalpak State University named after Berdak. He is a 2nd-year student of the Faculty of

History, majoring in archaeology

gulbadanbegimamonva@gmail.com

Abstract; This article is about the development of archeology in Uzbekistan, the research conducted in the territory of Uzbekistan and the research conducted to increase the historical monuments and add them to the historical cultural heritage, further increase the history of Uzbekistan.

Key words: Archeology, A. Yu. Yakubovsky, Termiz, Central Asia, Expedition, S. Tolstov, Ya. Gulomov, UzR FA

История развития археологии в Узбекистане (XX-начало XXI века).

Амонова — дочь Гульбаданбегим Амина. Каракалпакский государственный университет имени Бердака. Студент 2 курса исторического факультета по специальности археология.

gulbadanbegimamonva@gmail.com

Аннантатсия: В данной статье речь идет о развитии археологии в Узбекистане, исследованиях, проводимых на территории Узбекистана, а также исследованиях, проводимых с целью увеличения исторических

памятников и включения их в историко-культурное наследие, дальнейшего увеличения истории Узбекистана.

Ключевые слова: Археология, А.Ю. Якубовский, Термез, Средняя Азия, Экспедиция, С. Толстов, Я. Гуломов, УзФА

Tarixni dialektikacha davrlash masalasi ming qo'yilishi tarixchilarni va arxeologlarni ishga solib yubordi. 1937-1940 yillar tarixini shu jumladan O'zbekiston tarixini davrlash masalasi yuzasidan yozma manbalarni o'rganishiga kirishishi Bilan birga, arxeologiya yodgorliklarini qazib topishga ham jiddiy etibor berila boshladi. Bu ishning boshida Moskva, Leningrad va O'zbekiston arxeologlari A.Yu.Yakubovskiy, G.V.Grigoriv, S.P.Tolstov, M.E.Masson va boshqalar turdilar. Birinchi ish O'zbekistonning alohida gruppera tumanlarida arxeologiya razvetkasi (qidirish) o'tkazishdan boshladi.

Masalan, 1932-1933 yillari Namangan oblastining Uchqurg'on tumanida, Norin daryosiga elektrostansiya qurish tayorgarligi munosabati bilan Leningrad arxeologlaridan Latinining Farg'ona vodisining shimoli-sharqiy tumanlarida: 1934-yili Leningradlik arxeolog G.V.Grigorev Yangiyo'l tumanida: 1934-yili Leningrad arxeologlaridan professor A.Yu.Yakubovskiy boshliq Leningrad va O'zbekiston arxeologlari Buxoro-oblastining sharqiy qismida, Yana shu yili arxeolog M.E.Masson boshliq arxeologlar Ahongaran vodiysida jiddiy arxeologiya razvetkalari o'tkazdilar.

1936-1937-yillarida bu ish kengayib,qadimgi Termiz shaxrini qazish yuzasidan ilimiyl ishlar kuchaytirilishi bilan birga professor S.P.Tolstov boshchiligidida Buxoro oblastining g'arbiy qismida yangidan tekshirishlar boshlandi. Bu ekspeditsiyalar katta masshtabda uyuşdırılıp, bularning hammasiga Moskva, Leningrad va O'zbekiston arxeologlari hamkorlik qildilar.[1.52b]

1953-yilning kech kuzida Toshkentdan 15 kilometr chamasi g'arb Shoyim ko'priq degan joyda Qoraqamish suvning buyidagi qadimgi qatlamlardan ashel davridan tortib muste va undan keyingi davrlarda yashagan xalqning qurollari juda kup topildi. Bu joyi kunlarda Leningrad mutaxassislaiklarining yordami bilan qazilmoqda. Janubiy Turkmanistonda, Toshkent oblastining Bustonlik tumanida va Farg'onada, Qayraqqum cho'lida ham ashel davrining ba'zi qurallori topilgan.

Demak, hozirgi zamонимиздан 400-500 ming yillar ilgari O'rta Osiyo va O'zbekistonda ashell qurollarini ishlatgan ibridoiy poda holatidagi odamlar yashagan.

Ulug' Vatan urushiga qadar tashkil etiladigan arxeologik ekspeditsiyalar ichida eng yirigi S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi bo'lib, bu

ekspeditsiya tomonidan Amudaryo etaklarida neolit va bronza davriga oid ko‘plab yodgorliklar topilgan.

Bu yodgorliklar ichida Janbas-4 alohida o‘rin egallaydi. Chunki shu yodgorlikning topilmalari tufayli arxeologiya faniga «Kaltaminor madaniyati» deb nomlangan o‘ziga xos hususiyatlarga ega bo‘lgan. O‘zbekistonni nafaqat Xorazm viloyati balki Markaziy Osiyoning shimolida yashagan ajdodlarimizni qadimiylar tarixga mansub bo‘lgan madaniyatini yoritishga muvaffaq bo‘lindi. Bunday yutuqlarni qo‘lga kiritish bir tomondan juda yaxshi ammo ikkinchi tomonidan vatanimiz xududidagi yodgorliklarning ko‘pligi va ularni ajdodlarimiz tarixinining barcha davrini mukammal yoritish ob’ektlari ekanligiga e’tiborimizni jalb etsak, yuqoridaq ilmiy tadqiqot ishlaridan dengizdan bir tomchi qoladi holos.

Buning ustiga qadimiylar madaniyatimizning yuksakligini bor bo‘y-basti bilan ob’ektiv ravishda ko‘rsata bilish, har bir ajdodning faqat o‘z avlod uchungina fahr va iftihor bo‘lgan ekanligini xisobga olsak asrimizning 50-yillarigacha o‘z milliy arxeolog olimlarimizni va ularni iloji boricha tezroq yetishtirish zarurligi yaqqol ko‘zga tashlanar edi. Bunga misol qilib o‘scha 1940-yillardek butun dunyoga mashhur arxeolog sifatida tanilgan S.P.Tolstov bilan endigma tarix fanlari nomzodi darajasiga erishgan Ya.G‘ulomovning ilmiy munozarasini ko‘rsatish mumkin. S.P.Tolstov Xorazm xududidagi yodgorliklarni urganib shu xududda ibridoiy tuzumning bir necha madaniy davrlarini ko‘rsatib Suvyorg‘an madaniyatini Xorazmda Yangi etnik element ekanligini aytib, uni tarixiy jihatdan janub bilan ya’ni Eronning tog‘li tumanlari va qo‘shni mamlakatning xududlari bilan bog‘liq ekanligi haqida yozgan edi. S.P.Tolstovning bunday fikrga kelishi sabab, neolit davriga mansub bo‘lgan Jonbos-4 yodgorligining arxeologik topilmalarni bronza asriga mansub bo‘lgan Suvyorg‘an va Tozabog‘yop madaniy qatlarni toplamlari bilan solishtirganda ular o‘rtasida biron bir ifodali o‘xshashlik topilmagani bo‘lgan edi. Chunki bu yodgorliklar o‘rtasida xronologik farq katta edi. Ammo Ya.G‘ulomov 1940-1946 yil Xorazmda ibridoiy tuzum yodgorliklarni o‘rganishda faol qatnashib va Suvyorg‘an madaniyatiga mansub Djanbas-6 yodgorligini qazish ishlariga rahbarlik qilib uni arxeologik topilmalarini har tomonlama analiz qilib chiqish jihatidan Kaltaminor madaniyatiga bog‘liq degan hulosaga keladi. Bunday ikki xil nuqtay nazar oradan 15 yildan ko‘proq vaqt o‘tgunga qadar ham o‘z kuchida qoladi. [3.58b]

1950 – 70 yillarda respublikada tarixchi va arxeoglarning o‘ziga xos «G‘ulomov maktabi» dunyoga keldi. Akademik Ya. G‘ulomov rahbarligida 30 dan ortiq fan nomzodlari va fan doktorlari yetishib chiqdi. Shuning uchun ham hozirgi kunda haqli tarzda O‘zRFA arxeologiya instituti ulug‘ alloma. Ya. G‘ulomov nomi

bilan ataladi. Ya, G‘ulomovni O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan yirik tarixiy arxeologik asarlar yaratishda va tayyorlashda ham xizmatlari kattadir. «O‘zbekiston xalqlari tarixi» ning ikki jildlik kitobi, «Zarafshonning quyi oqimida madaniyat va sug‘orish dexqonchiligining paydo bulishi» (shogirdlari bilan xamkorlikda), «Samarqand tarixi», Buxoroning qadimgi zamonlardan hozirgi kungacha tarixi» Xorazm sug‘orilish tarixiga bag‘ishlangan monografiyalar, 100 ga yakin maqola va broshyuralar shular jumlasidandir¹.

Xozirda Respublikamizning Fanlar akademiyasiga qarashli Arxeologiya ilimi tekshirish institutida va dorilfununlarida o‘ndan ortiq arxeolog olimlari ajdodlarimizni ibridoiy tuzum tarixini paleolitdan tortib,to sinfiy jamiyat paydo bo‘lgunga qadar o‘tgan davrlarini o‘rganmoqdalar va bu haqda o‘nlab yirik monografiyalar hamda yuzlab ilimiylar yaratmoqdalar. Taniqli o‘zbek arxeologi va tarixchisi akademik A. A. Asqarov ellik yildan ortik ilmiy pedagogik faoliyatida tarix fanining turli yo‘nalishlarida (arxeologiya, tarixshunoslik, etnologiya, tarixiy – geografiya va h.q) samarali ish olib bormoqda. A. A. Asqarovning ilmiy faoliyati asosini insoniyat taraqqiyot tarixining dastlabki davrlari, antik davr madaniyati, Shark sivilizatsiya asosida ilk shahar madaniyati kabi jarayonlarning vujudga kelish muammolari tashkil etadi. A. A. Asqarov ko‘plab kompleks ilmiy ekspeditsiyalar rahbari sifatida Zarafshon vohasi, Vatanimiz janubiy xududlarida ibridoiy va antik davr muammolari bo‘yicha bir qator muhim kashfiyotlar qildi. A. A. Asqarov ilmiy faoliyatning ahamiyatlari tomoni shundaki, u O‘rta Osiyo antik davr xalqlari siyosiy, sotsiyal – iqtisodiy va madaniy tarixini yoritishda arxeologik yodgorliklarni rejali asosda o‘rganishni yozma manbalar bilan uyg‘unlashtira oldi. [2.82b]

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Ya. G‘. G‘ulomov nomli Arxeologiya Instituti ilmiy kollektivi shakllanishida xam Axmadali Asqarovning ilmiy va tashkilotchilik xizmatlari beqiyosdir. A.A. Asqarov butun hayoti xalqimiz madaniy merosini o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq. Ayni kunlarda respublikamizda ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlar ya’ni milliy madaniy qadriyatlarimiz tiklanayotgan milliy istiqlol mafkuramiz shakllanayotgan bir paytda A.A. Asqarovning qadimshunoslik fanida erishgan kashfiyot, yutuqlari yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, milliy istiqlol mafkuramiz ildizi naqadar chuqur va mahalliy xarakterdaligi A.A. Asqarov ilmiy tadqiqotlarida jonli ifodasini topgan. Surxandaryo vohasining uzoq o‘tmish – tosh, bronza, temir asrlari tarixini

akademik A.A. Asqarovning ilmiy mushoxadasiz uzok yillik izlanishlarisiz to‘liq tasavvur qilib bo‘lmaydi. Akademik A.A. Asqarovning bundan o‘ttiz yil avvali ilmiy tahminlari Surxondaryo vohasining uzoq o‘tmish tarixi misolida isbotlandi, amalda tasdiqlandi. Keng ilmiy qamrovli noyob mushohadali olimning uzoq yillik tarixiy, arxeologik izlanishlari natijasida «Janubiy O‘zbekistonning bronza asri» tarixi, mukammal o‘rganildi. Bu davr tarixiga bag‘ishlangan o‘nlab monografiya, risola, maqolalar nashr etildi. Ular nafaqat mutasaddi ilmiy jamoatchilikka, balki ziyorilar, keng jamoatchilikka ma’lum, unumli foydalanimlib kelinmoqda. Akademik A.A. Asqarovning «Sopolli tepa», «Janubiy O‘zbekistonning qadimgi dexqonchilik madaniyati» deb nomlangan yirik monografiyalari ko‘pchilikka tanish².

Umuman A.A. Asqarov 300 ilmiy maqola, 12 monografiya, va ikkita o‘kuv qo‘llanmasini chop etdi. Akademik A.A. Asqarov Surxondaryo vohasidaning uzoq o‘tmish tarixini arxeologik jihatdan o‘rganishga ko‘plab iqtidorli yoshlarni, ayniqsa mahalliy yosh mutaxasislarni jalb etib o‘ziga xos maktab yaratdi, Surxondaryo vohasida arxeologik tekshirishlarni tobora avj oldirmoqdalar. Akademik A. A. Asqarovning tashabbusi bilan Surxondaryo arxeologiyasiga Yaponiya, Xitoy, Fransiya, Germaniya, Rossiya kabi xorijiy mamlakatlarning olimlari ham jalb etilgandir. O‘zbekistonda arxeoliya fanining shakklanib va rivojlonishida Samarcand shahrida joylashgan akademik Ya.G.G‘ulomov nomidagi Arxeoliya Instituti xizmati katta. Arxeoliya Instituti 1970-yili tashkil topti. Institutni shakklantirishda buyuk olimlar akademik Ya.G.G‘ulomov va A.A. Asqarovning xizmati katta. Institut tashkil topishiga O‘zbekistonda arxeoliya faniga qiziqish, tadqiqot ishlarini shakklantirish va ilmiy asosda arxeologik qazish ishlarini olib borib, topilmalar asosida ilmiy yakunlar yasash yuli bilangina bu institutga e’tibor berildi. O‘zbekiston tarixidagi sivilizatsiyaviy jarayonlar jumladan odamning shakklanishi, qadimgi sharq madaniyati, ko‘chmanchilar bilan aloqada rivojlangan o‘trot madaniyat, ilk shaharsozlik yutuqlari, o‘rta asrlardagi shahar va davlatlarning tashkil topishi kabi tarixiy faktlar va ularni qadimshunoslik uslublarida tadqiqot etish kabi tashkiliy ishlar Arxeoliya institutining tashkil topishini taqozo etdi. XIX- asrning 90-yillarida Toshkent shahrida «Turkiston arxeoliya havaskorlar to‘garagi» akademik V.V. Bartold tarafidan tashkil topgan edi. Bu to‘garakda mahalliy havaskor arxeolog va o‘lkashunoslar Akram Asqarov, Turdi Mirg‘iyozovlar ilmiy faoliyatini boshlaganlar.[3.45b]

XX-asrning 30 yillaridayoq O‘zbekistonda arxeolog-mutahasislar yetishib chiqdi. Ular orasida M.E.Masson, Ya.G‘.G‘ulomov, T.Mirg‘iyozov, I.Suxarev, A.V. Shishkin kabi olimlar bo‘ldi. Arxeolog olimlar Termiz arxeologiya ekspeditsiyasi, Xorazm arxeologiyalik ekspeditsiyasi va boshqada tadqiqot mahkamalarida ilmiy ishlar, qazishlar olib bordi. Shular jumlasidan Toshkent Davlat universiteti, Tarix muzeyi va Fanlar Akademiyasi bo‘limlari bor. Ilmiy institutlar, ekspeditsiyalar O‘zbekiston va qo‘shni xududlardagi minglagan joylarda paleolit, mezolit, neolit, bronza, ilk shaharlar, antik madaniyat va o‘rta aslarga oid shahar va boshqa inshoatlarni o‘rgandi. Shular jumlasiga Teshik tosh g‘ori, Ko‘kcha, Djanbas qal‘a joylari, Zarafshon vohasidagi ilk tosh davri yodgorliklari, Qo‘yqirilgan qal‘a, Eski Nisa, Varaxsha, Termiz, Panjikentdagi tadqiqotlar kiradi. Memorchilik obidalari o‘rganildi va konservatsiya va restavratsiya ishlariga asos solindi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tashkil topdi. U vaqtida har turli ekspeditsiyalar va muzeylarda ishlayotgan qadimshunoslar arxeologiya fanining rivojiga o‘z ulushlarini qo‘shgan. Lekin bu tadqiqotlar alohida, bir biridan bo‘lak holatda ishladi. Bu fanning rivojiga to‘skinlik qildi. Yaani O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlarni koordinatsiya-biriktirish vazifasini paydo qildi. Shu sababli 1970-y. qadimiy shahar Samarqandta Arxeologiya instituti tashkil topdi. Bu ishning ilk tashkilotchilari akademik Ya.G‘.G‘ulomov, S.P.Tolstov, M.E.Masson va V.A.Shishkinlar bo‘ldi. Shu yunalishlar asosida fundamental muommalar mavzulari ishlab chiqiladi. Xo‘jalik shartnomalar asosida ilmiy ishlar tashkil qilindi. Madaniyat tarixi yodgorliklari majmuasi-Svod tuzildi. Yangi tashkiliy ishlar paleolit, mezolit, neolit yodgorliklarini (Uchtut, Ko‘lbuloq va hokazo), bronza yodgorliklari (Sopolli, Jarquton), urbanizatsiya jarayonlarini tadqiq etdi. O‘rta Osiyoning qadimgi shaxarlarini (Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent, Eski Asxi, Xanqa, Yerqo‘rgon, Zartepa va boshqada joylarda keng ko‘lamda arxeologik qazishlar tashkil etildi. Bu tashkiliy ishlar davrida O‘zbekistonning qobiliyatli mutaxassis arxeologlari, antropologlari A.A.Asqarov, A.R.Muxammedjanov, U.I.Islomov, Yu.F.Buryakov, T.K.Xodjaev, T. Mirsoatov, B.D.Kochnev, A.A.Anorboev, A.A.Abdurazzaqov, M.R.Qosimov, R.X.Suleymanov, M.I.Filanovich, Jamol Mirzaaxmedov kabi olimlar faoliyati katta yutuqlarga olib keldi. Hatto ko‘pchilik ko‘ziga ko‘ringan arxeologlarimizni ilmiy maqololari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlarning –London, Berlin, Parij kabi shaharlarida chop etilmoqda.[4.65b] Milliy kadrlarimizning ilmiy muvaffaqiyatlarining eng muhim tomoni shundaki, ular o‘zlarining bunday sa’y harakatlari bilan nafaqat O‘zbekistonimiz, balki butun Markaziy Osiyo xalqlarning qadimiy tarixi bilan jahon mamlakatlarini

tanishtirmoqdalar. Natijada hozirgi kunda bizni qadimiy tariximizga bo‘lgan qiziqish horijiy mamlaqatlarda kundan-kunga kuchaymoqda. Shuning uchun ham qariyb yarim asr davomida, O‘zbekistonimizning arxeologik yodgorliklaridan qazib olinib, to‘plangan topilmalariga asoslanib oliygohlarimiz uchun darslik yaratish arxeolog olimlarimiz uchun ham farz, ham qarzdir. Hulosa qilib shuni aytish kerakki, mustaqil Respublikamizda asosan XX asrning II - yarmida arxeologiya fani fan sifatida tashkil topdi va shakllanib kamolotga yetishdi. Lekin ko‘rsatish joiz arxeologiya fani O‘zbekistonning mustaqillik yillarda yangi yunalishlarda rivojlanmoqda. [4.32b]

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.** Толстов С.П. Последам древнекорезмской цивилизаций, М, 1948. с.27.
- 2.** Ширинов Т.Ш , Пардаев М.Х, Мирзаахмедов Ж.К. Академик Я.Г. Гуломовнинг илмий ишлари руйхати/Узбекистонда моддий маданият тъарихи. 28-китоб. 7-11 бет.
- 3.** Аскаров А.А. Саполли тепа. Тошкент. 1974.: Яна қаранг. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Тошкент, 1977
- 4.** Ушканова Л.М. Турды Миргиязов-археолог и краевед/ Материалы по истории Узбекистана. Тошкент, 1961. 133-б